



THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNANCE AND THE DOMINANCE OF WOMEN LEADERS IN GENDER DIFFERENCES.

Maxatova Nozima Icmatillo qizi

Qarshi DU stajer-tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5502027>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2021

Accepted: 05th September 2021

Online: 10th September 2021

KEY WORDS

Gender equality in our country, Republic of Uzbekistan, Gender

ABSTRACT

Our country is working hard to ensure gender equality, increase the role of women, expand their opportunities in society and public administration, provide employment, develop entrepreneurship and ensure the social protection of women.

AYOLLARNING BOSHQARUVDAGI ROLI VA GENDER TAFOVUTLARDA AYOL RAHBARLARNING USTUN JIHATLARI

Maxatova Nozima Icmatillo qizi

Qarshi DU stajer-tadqiqotchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021

Ma'qullandi: 05- sentabr 2021

Chop etildi: 10- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Mamlakatimizda gender tengligi, O'zbekiston Respublikasi, Gender

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning rolini oshirish, jamiyat va davlat boshqaruvida imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash, tadbirkorligini rivojlantirish va ayollarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning rolini oshirish, jamiyat va davlat boshqaruvida imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash, tadbirkorligini rivojlantirish va ayollarning ijtimoiy himoyasini

ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2018-yil 15-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan "Mamlakatning demokratik yangilanishi hamda modernizatsiyasida ayollarning roli: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot" mavzusida xalqaro



konferentsiyada ishtirok etgan BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Xelena Freyzer o'z ma'ruzasida shunday ta'kidlagan edi: "Rahbarlik mavqeidagi ayollarning muhim vazni mavjudligi barcha mamlakatlarda jamiyatlarning ijobiy rivojlanishiga olib kelgan. Shunday qilib, jahon amaliyoti shuni ko'rsatib turibdiki, davlat boshqaruvida ayollarning vakolatini oshirish qonunchilikning gender omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishiga olib keladi, ayollarning siyosatda qatnashuvi ayollarning kundalik muammolari ham parlament muhokamalarida o'sib borishini ko'rsatadi. Shu tarzda, davlat boshqaruvida ayollarning vakolatlarini kengaytirish ayollarning manfaatlarini himoya qilishni yaxshilaydi".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 841-sonli qarorida xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda pender tenglik tamoyillarini boshqaruvning turli bosqichlarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga to'la singdirish vazifalarini amalga oshirish ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-sonli Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat

Dasturining 9-bandida "Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizimni yaratish" belgilangan.

"Gender" atamasi fanga birinchi bo'lib 1955 yilda seksolog Jon Money tomonidan kiritilgan. Gender - inglizcha "gender" - "zot", "jins" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jinsga - erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilar birligidir.

Gender - psixologik nuqtai nazardan shunday tushunchaki, uning yordamida odamlar "erkak va ayol" tushunchalarining mohiyatini yoritadi. Ma'lumki, "jins" tushunchasining o'zi biologik kategoriya bo'lgani uchun ham ijtimoiy psixologiya erkak va ayollar xislatlaridagi tafovutlarning biologik jihatdan bog'liqligini asoslashda bu termini ishlatadi.

Gender muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oila va jamiyatdagi gender rollarining taqsimoti xalqning madaniyati, ma'naviyati va turmush tarzidan kelib chiqarkan.

"Gender" tushunchasi psixologiyada nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. 20-asrning 70-yillari o'rtalarida AQSh va G'arbiy Evropada ayollarning rahbarlik lavozimlarini egallay boshlashlari olimlarni erkak rahbarlar bilan taqqoslash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlariga sabab bo'ldi va tadqiqot natijalari ayol-rahbar va erkak-rahbarning samaradorlik ko'rsatkichlari tengligini ko'rsatdi.



Ann Tsui va Barbara Gutek yirik korporatsiyaning 295 nafar o'рта menejerlarining (217 nafar erkak va 78 nafar ayol) faoliyatini o'rganib, quyidagi statistik jihatdan muhim gender farqlarini: ayol-rahbarlar xuddi shu lavozimdagi erkaklarga qaraganda yoshligi, umumiy ish tajribasi va boshqaruv tajribasi kam bo'lishiga qaramasdan martabasi o'sishi - erkaklarga nisbatan tezligi; ularning muvaffaqiyatlari o'z rahbarlari va hamkasblari tomonidan yuqori baholanishi, muvaffaqiyatlaridan o'zlari ham qoniqishlari, lekin lavozim egallashda erkaklarga nisbatan kam intilishlarini aniqladilar.

Xitoylik menejerlar J.Fair, G.Dobbins va B.Chengning tadqiqotlarida rahbarlik faoliyatida muvaffaqiyatlarni o'rganishda gender farqlari yo'q degan xulosaga keldilar: har ikki jins vakillari ham o'zlariga juda past baho beradilar. Amerika madaniyatiga xos bo'lgan o'z faoliyatiga "murosasizlik samarasi" bilan qarash tamoyilidan farqli o'laroq, bu "kamtarlik samarasi" Xitoy madaniyatining "jamoaviylik" ta'siri bilan bog'liq edi.

Elis Egli va boshqa tadqiqotchilar o'tkazgan 88 ta tadqiqot natijalariga ko'ra rahbarlik faoliyatida yetakchilarning samaradorligi bo'yicha ayrim farqlarning namoyon bo'lganligi aniqlandi:

1. Jinsiy va rahbarlik rollarining o'xshashligi - muammoni hal qilishda erkaklarning rahbarlik roli samaraliroq, ayollarning rahbarlik roli esa - shaxslararo qobiliyatlarni ko'rsatish zarur bo'lgan holatlarda samaraliroq bo'ladi.

2. Qo'l ostidagi xodimlarning jinsi - erkaklar boshqaruvida erkaklarning faoliyati samarali bo'ladi.

3. Faoliyat sohasi, tashkilot turi - harbiy tashkilotlarda va kollejlarning sport

murabbiylari rovida etakchilik samaradorligi bo'yicha erkaklarning sezilarli ustunligi va ayollarning ta'lim, biznes, davlat va ijtimoiy xizmatlarda yengil ustunligi kuzatildi.

4. Boshqaruv darajasi - ekspertlarning xulosasi va texnik ko'nikmalar talab qilinadigan boshqaruvning quyi yoki chiziqli darajasida erkak rahbarlarning faoliyati samarali bo'ladi, shaxslararo ko'nikmalar talab qilinadigan boshqaruvning o'рта darajasida esa ayol rahbarlarning faoliyati samaraliroq bo'ladi. Boshqaruvning yuqori darjasidagi gender farqlari bo'yicha tadqiqot natijalarida to'liq xulosaga kelinmagan.

Zamonaviy boshqaruvda ayollarning ishtiroki ortib bormoqda. 19-asrning oxirida - 20-asrning birinchi yarmida ayollar ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar. Bu huquqni birinchi bo'lib 1893-yilda Yangi Zelandiya fuqarolari qo'lga kiritdilar.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab ayol yetakchilar soni, xalqaro tashkilotlarda rahbarlik lavozimlariga tayinlangan ayollar soni oshdi.

1960-2021-yillar oralig'ida 58 ta davlatni ayollar vaqti-vaqti bilan boshqarib turdi. So'nggi 50 yil ichida 13 ta mamlakatda bir nechta ayol rahbarlar bo'lgan. Yangi Zelandiya va Finlyandiya 1960-yildan 2021-yilgacha eng ko'p ayol lider bo'lgan davlatlar edi. Ayni paytda dunyoning 119 mamlakatida ayollar rahbarlik lavozimlariga saylanmagan.

Eng uzoq vaqt ayol rahbarlardan biri bo'lgan Bangladesh Bosh vaziri Shayx Hasina Vajid vaqti-vaqti bilan hokimiyat tepasiga kelgan va hozir ham Bangladeshni boshqarib kelmoqda. Vajid hokimiyatda bo'lgan umumiy vaqt taxminan 17 yilni tashkil etadi.



Hokimiyatda eng uzoq vaqt ishlagan ayollar reytingida, vaqti-vaqti bilan Hindiston bosh vaziri bo'lgan Indira Gandi keyingi o'rinda turadi. Gandi Hindistonning birinchi va yagona ayol bosh vaziri bo'ldi, u deyarli 16 yil hokimiyatda edi. Muntazam ravishda hokimiyat tepasiga kelgan Germaniya kansleri Angela Merkel, eng uzoq vaqt rahbarlik qilgan ayollardan biri - 15 yil. Dominikaning sobiq bosh vaziri Evgeniya Charlz deyarli 15 yil xizmat qilgan. Liberianing sobiq prezidenti Ellen Jonson-Serlif ham ketma-ket bir necha marta saylangan va o'z mamlakatini 12 yil boshqargan.

So'nggi 12 yil ichida o'z mamlakatlarida rahbarlik lavozimlarida ishlaydigan ayollar soni tez o'sdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiyatining 2020-yil 21-dekabrda hisobotiga ko'ra, ayollar butun dunyodagi vazirlik lavozimlarining qariyb 21 foizini egallaydi. 14 mamlakatda vazirlar kabinetidagi ayollar ulushi 50 foizdan oshdi. Bundan tashqari, 2020-yilda milliy parlamentlarning barcha a'zolarining 25 foizi ayollar edi.

Women's Power Indexning 2020-yil 28-sentabrdagi ma'lumotlariga ko'ra dunyoda ayollar boshqarayotgan 11 ta davlat bor. Ular orasida Germaniya kansleri Angela Merkel, Gruziya prezidenti Salome Zurabishvili, Estoniya davlat rahbari Kersti Kaljulaid bor. 2020-yil noyabr oyida ularning safiga 12-mamlakat rahbari bo'lib Moldova Respublikasi prezidentligiga saylangan Mayya Sandu qo'shildi va birinchi marta barcha MDH davlatlari orasida birinchi prezident ayol hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish

strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-sonli qarorida O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetganligi ko'rsatib o'tilgan.

2021-yilning 15-iyunida Toshkentda Vestminster universitetida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo va Afg'onistonda barqaror rivojlanish sari xotin-qizlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mavzusida"gi xalqaro biznes-forumda O'zbekiston Gender tengligi komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva o'z ma'ruzasida Markaziy Osiyo davlatlari boshqaruvida xotin-qizlarning o'rni oshib borayotgani, so'nggi 20 yil davomida Markaziy Osiyo davlatlarining parlamentlarida ayollar ulushining 2 baravarga oshirilgani, 190 ta davlat parlamentlarini birlashtirgan Parlamentlararo ittifoqning e'tirof etishicha, xotin-qizlarning parlament va hukumat doirasida ishtiroki bo'yicha O'zbekiston ittifoqqa a'zo davlatlar orasida 3-4 yil oldingi 128-o'rindan 45-o'rinni egallab, bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz nafaqat mintaqa, balki qator rivojlangan G'arb davlatlari - AQSH, Germaniya, Avstraliya, Kanadadan yuqori pog'onaga chiqib olganligini ta'kidlaydi. [9]

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi va boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi bois ularning jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlanib bormoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonuni //https://lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-sonli Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi //https://lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-sonli qarori //https://lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 841-sonli qarori //https://lex.uz
4. Tsui A., Gutek B. A role set analysis of gender differences in performance, affective relationships and career success of industrial middle managers // Academy of management journal. 1984. Vol. 27. N 3. P. 619-635.
5. Бендас Т.В. Гендерные исследования лидерства //Вопросы психологии. 2000. N 1. С. 87-95.
6. Eagly A.H., Karan S.J., Makhijani M.G. Gender and effectiveness of leaders: a meta-analysis // Psychological bulletin. 1995. Vol. 117. N 1. P. 125-145.
7. Women's Power Index //https://world.org